



## “BOBURNOMA”DA KELTIRILGAN AYRIM GIDRONIMLARNING TARIXIY-LISONIY TAHLILI

**Jalilova Madina Murotovna**

*magistr*

*Ilmiy rahbar: Nosirjon Uluqov*

*filologiya fanlari doktori, professor*

Jahon adabiyoti maydonida dahosan'atkorlar, buyuk ijodkorlar o'zlarining umrboqiy asarlari bilan nafaqat milliy adabiyotlarni boyitib kelganlar, balki umumbashariy badiiy tafakkur tadrijiga ham munosib hissa qo'shganlar. Dunyo tanigan o'zbek adiblari orasida Zahiriddin Muhammad Boburshohning alohida o'rni bor. Ayniqsa, Boburning birgina "Boburnoma" asarining o'ziyoq ijodkorning nomini abadiyatga muhrladi.

Uning "Boburnoma" qomusiy asari boshqa ko'plab sohalar bilan bir qatorda tilshunoslikning onomastika sohasini o'rganishdagi eng bebaho tarixiy manbalardan biridir. Chunki bu shoh asarda adibning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli uslubi o'z aksini topgan bo'lib, unda juda ko'p onomastik materiallar qayd etilgan. Memuarda qayd etilgan onomastik birliklar orasida gidronimlar (suv obyektlari nomlari), bizning hisobimizcha, 142tani tashkil etadi. Memuarda keltirilgan gidronimlarni quyidagi semantik guruhlarga bo'lib oldik:

**1. Daryo nomlari (Potamonim).** Oqar suvlar katta-kichikligiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Yer osti va yer usti suvlaridan hosil bo'ladigan katta oqar suvlar *daryolar* deyiladi. O'rta Osiyoda eng katta daryolar sifatida Amudaryo, Sirdaryo qayd etilgan<sup>1</sup>. "Boburnoma"da Amudaryo *Amu, Amu suyi, Amu daryo* tarzida keltirilgan: **Amu suyini Uyoch گزارidan o'tganda kelib mulozamat qildi.**<sup>2</sup> Asardagi gidronimlarni kuzatar ekanmiz, aksariyati tarkibida "suyi", "daryo" so'zlari gidronimik aniqlagich bo'lib keladi: *Tarix to'qqiz yuz o'nda Amu daryosi yoqasida Boqi Chag'oniyoniy manga kelib mulozamat qildi. (49-b.)* Amudaryo qo'shma tarkibli gidronim bo'lib, shakllanish modeli toponim + gidronimik aniqlagichdan iborat. Ayrim o'rinlarda esa Bobur Amudaryo gidronimini gidronimik aniqlagichsiz (suyi, daryo so'zlarisiz) keltiradi. Bunga sabab esa, bizningcha, Amudaryoning O'rta Osiyo hududidagi eng uzun daryo ekanligi va bu daryo katta-yu kichikka ma'lum bo'lganligi bois Bobur har safar qayd etishni joiz topmagan: *Tirmiz navohasindin Amuni kechaturg'on mahalda Sayyid Husayn Akbarkim, Tirmiz hokim edi, xabar topib, Boysunqur mirzoning ustiga keldi. (58-b.)* Tarixiy manbalarda bu daryoning 10 dan ortiq nomlari qayd etilgan: *Araks, Oks, Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa, Jayhun, Vaxsh, Termiz daryosi, Kalif daryosi, Urganch daryosi, Xorazm daryosi va boshqalar.* Bu daryoni yunon va rimliklar Oksus yoki Oksos,

<sup>1</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 58.

<sup>2</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шаъқ, 2002. – Б. 102. Barcha misollar shu manbadan olingani bois keyingi o'rinlarda matn ichida sahifani berish bilan kifoyalnamiz.



arablar Jayhun, yerli xalqlar dastlab O'kuz, Balx, Vaxsh, so'ngra Amul deb ataganlar. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy "Amudaryo tarixi" asarida yozib qoldirgan<sup>3</sup>. Amudaryoning hozirgi nomini O'rta asrlarda mavjud bo'lgan Omul (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chorjo') nomidan olingan deyishadi. Bizningcha esa, bu shahar daryodan nom olgan bo'lishi kerak. Chunki Mahmud Qoshg'ariy har qanday sokin narsaning *amul* deyilishini aytib o'tgan. Amul – tinch, sokin, bosiq; xotirjam, osoyishta; qo'nimli degan ma'noni anglatadi<sup>4</sup>. Demak, daryoning tabiiy xususiyati uning nomlanishiga asos bo'lgan.

Asardagi ayrim gidronimlar rang bildiruvchi lug'aviy birliklarning birikuvidan hosil bo'lganki, ular suvga xos bo'lgan turli belgi-xususiyatlarni ifodalaydi va shu asosda rang bilan bog'liq gidronimlar shakllanishiga lisoniy motiv bo'ladi. Suv leksemasi bilan bog'liq bu masala o'zbek tilining sug'orish leksikasi negizida X.Jabborov tomonidan o'rganilgan<sup>5</sup>. Rang bilan bog'liq gidronimlar tarkibida oq, qora, qizil, sariq, yashil, ko'k kabi rang tushunchasini ifodalovchi so'zlar qatnashadi<sup>6</sup>. Memuarda esa qizil, qora ranglari bilan nomlangan gidronimlar uchraydi. Jumladan, memuarda Amudaryoning chap tomonidan quyiladigan, Qunduz daryosining so'l irmog'i Qizilsuv tilga olingan: *Ya'qubga ijozat bergandan so'ng Qizilsuv quydi ko'chib, Andarob suyining qotilishiga yovuq tushuldi. (104-b.)* Suvning tiniq emas, loyqa ekanligi uning nomlanishiga asos bo'lgan. Qizilsuv gidronimi bitishuv munosabatidagi so'z birikmasidan yuzaga kelgan qo'shma tarkibli gidronimdir. Bunday gidronimni yasashda kompozitsiya usuli eng faol usullardandir. Qizilsuv – sifat+otning birikuvidan hosil bo'lgan.

Markaziy Osiyodagi yirik daryolardan yana biri Sirdaryo bo'lib, Tiyanshan tog'laridan boshlangan. Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Orol dengizi tomon oqqan<sup>7</sup>. Sirdaryoning nomi juda ko'p bo'lib, turli davrlarda va turli manbalarda har xil atalgan. Jumladan, qadimgi yunon tarixchilari kitobida Yaksart, ba'zan Tanais, "Avesto"da esa Danu, Yaosha, X asrda yozilgan "Hudud ul-olam" qo'lyozmasida Xashart, arablar kelgandan keyin Sayxun, Beruniy asarlarida Xasart, "Boburnoma"da esa Sayxun, Xo'jand suvi kabi shakllarda qo'llangan: **Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdir. (34-b.)**

"Boburnoma"da Sirdaryo irmoqlaridan uchtasining nomi tilga olingan. Birinchisi Aysi suyi (hozirgi Kosonsoy): *Nechukkim, Andijon suyi O'shdin kelur, Aysi suyi Kosondin. (36-b.)* Ikkinchisi Chir suyi : *Sulton Ahmad Mirzokim, Toshkandga mo'g'ul ustiga cherik tortib, Chir suyirikim, Toshkandtin ikki shar'iy yo'l bo'lgay, bu suvning yoqasidakim shikast topdi.(38-b.)* Sirdaryoning o'ng irmog'i bo'lib, hozirda Chirchiq daryosi deb ataladi. Uchinchisi Sirdaryoning yana bir o'ng irmog'i Aris suyi. Hozirda gidronimik aniqlagichsiz Aris deb ataladi: *Yana Turkistonda, Aris suyi yoqasida,*

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий, 2000. – Б. 293.

<sup>4</sup> Каримов Қ. Қадимги туркий тил луғати. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – Б. 74.

<sup>5</sup> Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. – Қарши: Насаф, 2004. – Б. 38-40.

<sup>6</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 63.

<sup>7</sup> Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 457.



*Samarqand navohasini chopib boradurg'on o'zbek bila Aris suyini muz bila kechib, yaxshi bosib, asir va molni ayirib, tamom egalariga yondura berib, hech nima ta'ma qilmadi. (38-b*

Hozirgi Zarafshon daryosi asarda *Ko'hak suyi* tarzida keltirilgan. *Ko'hak* Zarafshon daryosining o'rta asrlardagi nomi bo'lib, "Avesto"da Daytiya (Edgu suv) deyilgan. Bobur daryoning *Ko'hak* deb atalishiga *Ko'hak* tog'ining tagidan oqib o'tganligi, shu tog' nomi bilan atalishiga sabab bo'lganligini yozadi: "Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. *Ko'hak* derlar. Bu rud muning tubidan oqar uchun **Ko'hak suyi** derlar. (59-b.) *Ko'hak* tojikcha so'z bo'lib, "ko'h"- "tog'", "-ak" kichraytirish qo'shimchasi bo'lib, kichik tog' suvi, tog' daryosi degan ma'nolarni anglatadi. Hozirda *Ko'hak* tog'i Cho'ponota deb ataladi.

**2. Anhor (rud) nomlari.** Anhor (arabcha, birligi nahr) – katta ariq degani.<sup>8</sup> Asarda anhor so'zi o'rnida unga muqobil ravishda "rud" gidronimik aniqlagich qo'llangan, ammo ba'zi o'rinlarda daryo ma'nosida ham kelgan: *Sulton Ma'sud mirzo Xisorda turmoqning maslahatini topmay, Kamrud rudi yuqori Siri tog' yo'li bila inisi Boysunqur mirzo qoshig'a Samarqandga bordi. (52-b.)* Asarda Zarafshon daryosining boshlanish yuqori (hozir Tojikiston respublikasi hududidan oqadi) oqimi Kamrud deb atalgan.

Shuningdek, rud so'zi gidronim tarkibida qo'shma ot tarzida kelgan: *Odinapur qo'rg'onining janub tarafi Surxrudtur. Qo'rg'on balandida voqi bo'lubtur. Rud tarafi qirq-ellik qari yakondozi tog'dur. (110-b.)* Surxrud tojikcha so'z bo'lib, "surx" – qizil, "rud" – daryo degan ma'noni anglatadi. Sifat+ot birikuvidan hosil bo'lgan. *Odinapur qo'rg'onining janubidan oqib o'tuvchi daryo bo'lib, suvining loyqa ekanligi nomlanishiga asos bo'lgan.* Bunday gidronimlar suvning tabiiy belgi-xususiyati asosida nomlangan gidronimlar guruhiga kiradi.

**Topogidronimlar.** Suv obyektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari topogidronimlar hisoblanadi. Bunday gidronimlar, asosan, konversiya usulida yuzaga keladi. Onomastik konversiya, jumladan, gidronimik konversiya usulida nomlar yasalganda tildagi ma'lum bir so'zlarga ishtirok etadi. "Boburnoma"da topogidronimlarni ko'plab uchratamiz: **Bangash rudi Bannuga chiqar, Bannu bu suv bila ma'murdur. (119-b.)** Bangash Kobul viloyatidagi tumanlardan biri bo'lib, shu hududdan oqib o'tgan anhor shu hudud nomi bilan atalgan. Tilning toponimik tizimi doirasida bu hodisa transonimizatsiya (biror tip atoqli otning, boshqa tip atoqli otga o'tishiga) deb aytiladi<sup>9</sup>. Yuqoridagi misolda tuman nomi suv obyekti nomiga o'tgan.

Yana shunday nomlardan nomlarning tug'ilish jarayoniga G'azni rudini misol qilib keltiramiz: *Munda yig'ilur suvlar kattavoz vodiysining va Zurmat julg'asining va G'azni rudining, bahor yomg'urlarining sellari va yozlar suv ulg'ayganda ziroatdin ortkop*

<sup>8</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 61.

<sup>9</sup> Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006. – Б. 84.



*suvlari emish. (122-b.)* G'azni viloyati Afg'onistondagi shaharlardan biri bo'lib, shu hududdan oqib o'tgan anhor shu toponim nomi bilan atalgan.

Andijon viloyati hududidan oqadiga daryo, shu toponim nomi bilan atalgan: **Andijon rudi** *O'shning mahallotining ichi o'tub, Andijong'a borur. (35-b.)* Ba'zi o'rinda bu daryo nomi "suyi" gidronimik aniqlagich bilan ham keladi: *Nechukkim, Andijon suy* *O'shdin kelur, Axi suy Kosondin kelur.* Demak, Bobur rud va suy, suvi so'zlarini ma'nodosh sifatida qo'llagan.

**3. Kechuv (guzar) nomlari.** Guzar – daryodan kechib o'tiladigan joy, kechuv<sup>10</sup>. Asarda bir qancha Amudaryo bo'yidagi guzar nomlari keltirilgan. Masalan, *Tirmiz, Kilif, Karki, To'qquz o'lum guzari.* Tirmiz shahri yonida daryoning eng muhim kechuvi bo'lgan va u "*Tirmiz guzari*" deb nom olgan. Xuddi shu kabi Kilif Amudaryo sohilidagi shahar bo'lib, bu yerdagi kechuv "*Kilif guzari*" deb atalgan va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan: **Tirmiz va Kilif va Karki guzarlarida** *kema muncha yasang, ko'pruk asbobi bu miqdor tayyor qiling, yuqori To'qquz o'lum guzarlarini yaxshi ehtiyot qiling. (103-b.)* Karki guzarining nomlanishiga esa Amudaryoning chap sohilidagi Karki qo'rg'oni nomi asos bo'lgan<sup>11</sup>.

Huddi shunday topogidronimlarga *Dinkot guzarini* ham misol qilib keltirishimiz mumkin: **Dinkot guzari** *bila o'tganlar Bangash bila kelurlar. Chupora guzari bilan o'tganlar agar Farmul bila kelsalar, G'azni kelurlar va agar dasht bila borsalar, Qandahor borurlar. (109-b.)* Dinkot – Pokistonning shimolida, Sind daryosining o'ng sohilida joylashgan qo'rg'on bo'lib, uning yaqinidagi guzar shu qo'rg'on nomi bilan atalgan. Cho'pora guzari Sind daryosidagi guzarlardan biri bo'lib, "Boburnoma"da bu guzardan shimol tomondagi tog'lar Cho'pora tog'lari deb atalgan. Guzarining nomlanishiga shu tog'larning nomi asos bo'lgan. Demak, aksariyat guzarlarning nomlanishiga shu hududdagi toponimlar nomi motiv bo'lib xizmat qilgan va topogidronimlarni hosil qilgan.

**4. Soy va chashma nomlari:** Soy – kichik daryo<sup>12</sup>, tabiiy o'zanda doimiy va mavsumiy oqadigan kichik daryo, ariq, irmoq. Oqar suvlar faoliyati natijasida yoki tektonik harakat oqibatida hosil bo'lgan, kambar, uzun relyef shakli. Soyda suv oqishi, oqmasligi ham mumkin. Asarda *Karnon soyi* qayd etilgan: *Kechaning uch posigacha yo'l kelduk. Karnon soyigakim Ravodin chiqib kelur, yettuk. (98-b.)* Hozirda shu nom bilan ataluvchi Karnon qishlog'i bor, Chust tumanida joylashgan. Karnon soyi ham huddi shu joydan oqib o'tgani uning nomlanishiga asos bo'lgan. Memuarda ham *Karnon* toponimi keltirilgan: *Dobondin oshib, Zirkon va Karnon navoxisida ikki xon qatildilar. Karnon navoxisida bir kun dim ko'rdilar, cheriklarini o'ttiz ming chenadilar. (91-b.)* Demak, Karnon soyi ham topogidronimga yorqin misol bo'la oladi.

Chashma – buloq, yer ostidan chiqadiga suv manbai<sup>13</sup>. Asarda "*buloq*" geografik atamasi o'rnida "*chashma*"so'zi qo'llangan. Adib ba'zi nomlarni vajhi tasmiyasini

<sup>10</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 62.

<sup>11</sup> Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарк, 2014. – Б. 283.

<sup>12</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 64.

<sup>13</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 62.



izohlashda rivoyatlar keltiradi : *Bu kentlardin quyiroq, dashtdin bir kuro'x, bir yarim kuro'x yuqqori boqa domonada tog'ning tubida chashma voqi bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav daraxtlardur. Chashmaning o'rtasida qalin chinor daraxtlaridur, latif soyasi bordur. Chashmaning ikki tarafida tog' tubidagi nushtalarda qalin balut daraxtidur. Ushbu ikki parcha balutistondin o'zga Kobulning g'arbiy tog'ida balut daraxti aslo bo'lmas. Chashmaning olidakim, dasht tarfi bo'lgay, qalin arg'uvonzor voqi bulubtur. Bu viloyatta ushbu arg'uvonzordin uzga arg'uvonzor aslo yuqtur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidur. Seyorong'a vajhi tasmiya muni derlar. (112-b.)* Kishilar odatda o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan nomlardan ma'no axtara boshlaydilar va o'z tillariga moslashtirib talaffuz qilishga intiladilar. Xalq etimologiyasi shu yo'sinda paydo bo'ladi va shu tariqa rivoyatlar ham to'qiladi. Chunonchi, Seyoronning vajhi tasmiyasi ham rivoyatga qorishilgan holda izohlangan. Seyoron – fors-tojikcha so'z bo'lib, “uch do'st” ma'nosini anglatadi. Buluq atrofida uch xil daraxtning (chinor, balut, arg'uvon) borligi va Kobulning boshqa joylarida bu daraxtlarning o'smasligi xalq tomonidan yuqoridagi rivoyatni yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Memuarda suv obyektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari – topogidronimlarni ko'plab uchratamiz. Masalan, Kindgar chashmasi Mandiravor tumanidagi kent Kindgar hududidan chiqqani uchun shu toponim nomi bilan atalgan: *Chorshanba kuni Kindgar chashmasiga borib, sayr qilduk. Kindgar Mandirovar tumanna taalluq kenttur. Tamom Lamg'onotda ushbu kentta o'q xurmo bordur... Bu chashma suvi bisyor muloyim, qish kunlari kishiga bu suv avval juzve sovuq maxsus bo'ladur, so'ngra turgon soyi kishiga suvi xush yoqadur. (182-b.)*

Asarda Boboqaro chashmasi keltirilgan: *Tonglasi ko'chub, Bajavrning julg'asida Boboqaro chashmasiga tushuldi. (162-b.)* Toponimiyaga oid ilmiy manbalarda yer ostidan chiqadigan buluq suvi qorasuv deyilishi, chunki uning suvi qoramtir tusda bo'lishi ko'rsatilgan. Boboqaro chashmasining nomlanishiga buluq suvining rangi asos qilib olingan.

**5. Ariq nomlari.** Ariq (ar – qadimiy eroniy tillarda oqmoq fe'lining o'zagi, ya'ni “suv”) – suv yo'li. Bobur Samarqand shahri yaqinidagi *Obirahmat* arig'ini sinonimlari bilan (Siyohob, Qorasuv) keltiradi. Quyidagi misolda Obirahmat nomi butun ariqqa nisbatan ishlatilgan: *Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar. Juvozi kog'azlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu Qora suvni Obi Rahmat ham derlar. (60-b.)* Boshqa o'rinda esa *Obirahmat* deyilganda *Siyohobdan* ajralib, Pushtai Ko'hakning etagidan aylanib oqib o'tgan ariq tushunilgan: *Yana Pushtayi Ko'hakning domonasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obi Rahmat ham derlar, bir bog' solibtur. (59-b.)*

Ariqning boshlanish qismi Siyohob deyilgan (hozirgi Siyob). *Siyohob* – fors-tojikcha so'z bo'lib, “qorasuv” ma'nosini bildiradi. Ma'lumotlarga qaraganda, yer ostidan chiqadigan buluq va sizot suvlari bilan to'yinadigan soy va ariqlar *qorasuv*



deyilgan. Chunki ularning suvi qora rangda bo'lgan. Qorasuv gidronimining semantik asosi ana shu qorasuv terminiga bog'lanadi.

Asarni tahlil etish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, memuarda bir qancha gidronimik atamalar bilan nomlangan joy nomlari ham uchraydi. Chunonchi, Oqsuv, Qorabuloq, ChashmayiPara, Qarg'abuloq, Garmchashma, Bodomchashma, Qirqariq va boshqalar: **Qarg'abuloq** pushtalarida *Mirzoxonga yetarlar, qocha ham olmas, ilik tebratguncha quvvat va jur'ati ham yo'q edi, olib keldilar.* (152-b.) Qarg'abuloq pushtalari – Kobul shahri yaqinidagi tepaliklardir. Bu toponimning yuzaga kelishiga quyidagi sabablari bor:

1. Nomlanayotgan joyda dastlab paydo bo'lgan buloq shu tepaliklar nomiga o'tishi.
2. Tepaliklarni nomlashda shu hududning tabiiy jihatdan harakterlovchi buloqning motiv qilib olinganligi.

Asarda *Garmchashma* toponimi 3 marta tilga olingan. Garm chashma – Lamg'onot viloyatidagi mavze. Qo'shgumbaz va Qirqariq mavzalarining o'rtasida joylashgan<sup>14</sup>: **Garm chashmaning** *balandisida tushub, yaxni tortiladur edikim, Langarxonkim, necha maxal o'z yerida edi, kelib, ot va bir pora ma'jun tortib, mulozamat qildi.* (178-b.) Garm chashma toponimi tarkibida chashma gidronimik aniqlagichi borligi uchun uni Zulxumor Xolmanova o'z monografiyasida chashma nomlari deb tahlil qilgan: *d) chashma nomlari: t+chashma: Garm chashma*<sup>15</sup>. Memuarda esa Garmchashma buloq nomini emas, joy nomini bildirib kelgan. Huddi shu kabi Bodomchashma toponimi ham chashma emas, dovon (ko'tal) nomini bildirgan:

**6. Hovuz nomlari.** Hovuz – kichik suv ombori<sup>16</sup>. Asarda zikr etilgan hovuz nomlari kishi nomi bilan atalgan: *Orada qo'nub, seshanba kuni, oyning yigirma sakkizida Baxjatxonning hovzining yoqasida band ustida tushtum.* (243-b.) Baxjatxon Chanderiy qal'asi amiri. Bobur Baxjatxon qurdirgan hovuz yonida sakkiz kun turgan va qal'ani egallash uchun tayyorgarlik ko'rgan. Hovuz Baxjatxon buyrug'iga binoan qurdirilgani uchun uning nomi bilan atalgan. Antroponimlarning joy nomlariga aylanishi keng tarqalgan lisoniy hodisa bo'lib, kishilarning suv obyekti bilan munosabati: unga egaligi, barpo etganligi kabi dalillar asosida motivlangan, atalgan suv obyektlari *antropogidronimlar* deyiladi<sup>17</sup>. Bunday nomlarni Zarif Do'simov *antroponimik tip* termini ostida tahlil qilgan<sup>18</sup>.

Yana shunday antropogidronimlarga *Malluxon hovuzini* misol qilib keltiramiz: *Bu ishlarga somon berib, yakshanba kuni, jumodi ul avval oyining o'n birida murojaat azimati bila Malluxonning hovzidin ko'chub, Burxonpur suyining yoqasiga tushtuk.* (235-b.) Malluxon Sarduk Hindistonning yirik amaldorlaridan biri bo'lib, uning buyrug'iga asosan Chanderi qo'rg'oni yaqinida hovuz qurishgan. Shuning uchun hovuz

<sup>14</sup> Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарк, 2014. – Б. 209.

<sup>15</sup> Холманова З. Бобурнома – тил комуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – Б. 251.

<sup>16</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B. 66.

<sup>17</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 86.

<sup>18</sup> Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 94-97.



nomi Malluxon ismi asosida shakllangan. Demak, asarda keltirilgan hovuz nomlariga shu hovuzning qurulishiga boshchilik qilgan rahbarlarning nomi asos qilib olingan.

Asarda keltirilgan gidronimlarga oid asosiy geografik atamalarning tarixiy va hozirdagi shakllari:

### Geografik atamalar

Daryo	Daryo
Ko'l	Ko'l
Guzar	Kechuv
Suy	Suv, daryo
Band	To'g'on
Rud	Anhor, ariq, daryo
Jazoyir	Orol
Qo'l	Soy
Obgir	Botqoqlik
Tarnov, shayjo'y	Ariq
Chashma	Buloq
Ob	Suv
Obrud	Katta ariq
Obgir	Suv olinadigan joy
Obduzd	Tarnov
Hovz	Hovuz
Koriz	Yer osti arig'i
Shaxjo'y	Katta ariq

3.1.1-rasm. "Boburnoma"da aks etgan gidronimlarga oid asosiy geografik atamalarning tarixiy va hozirgi shakllari

**Xulosa qilib aytganda**, toponimlar sistemasida gidronimlar va topogidronimlar hamda antropogidronimlar uning tarkibiy qismi sifatida alohida ajralib turadi. Asarda tilga olingan gidronimlarning salmoqli qismini topogidronimlar tashkil etadi.

"Boburnoma" da keltirilgan gidronimlarning lisoniy shakllanishida gidronimik aniqlagichlar (suyi, suvi, rud, hovz, guzar va boshqalar) turli mustaqil so'z turkumiga oid so'zlarga qo'shib, ularni suv obyekti va inshootlarining atoqli nomini ifodalashga xoslaydi. Qomusnomadagi gidronimik aniqlagichlar tarixiy-etimologik jihatdan, asosan, umumturkiy, fors-tojikcha, qisman, arabcha lug'aviy qatlamga mansubdur.

Memuarda qayd etilgan gidronimlar tuzilishiga ko'ra sodda tarkibli, qo'shma tarkibli va murakkab tarkibli gidronimlarga bo'linadi.